O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60230100-1.31
2021- yil “28”- august

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
R.I.Xalmuradov
2021- yil “28”- august

TURKIY FILOLOGIYA ASOSLARI (TANLOV FAN)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Fan dasturi SamDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-yil 7-may dagi 15 -son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti o‘quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 22- may dagi 8 -sonli bayonnoma).

Fakultet o‘quv-uslubiy kengash raisi: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26 -may dagi 8- sonli bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengash raisi **prof. A.Pardayev**

Kelishildi:
SamDU o‘quv ishlari bo‘yicha propektor **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
TFAT 4003	2021-2022	2	3

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
	O‘zbek	6

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)
1.	Turkiy filologiya asoslari (tanlov fan)	30	60	

2. **I. Fanning mazmuni**

“Turkiy filologiya asoslari” tanlov fanining maqsadi: fanning shakllanishi, manbalari, maktablari, qadimgi turkiylar, turkiy yozuvlar, turkologiyaning muammoli masalalari, turkiy tillarning tasniflari, tadqiqi darajasi haqida bilimlar berishdir.

Fanning asosiy vazifalari: turkiy tillarning oltoy tillari oilasida tutgan o‘rnini aniqlash, turkiy tillarning tarixiy bosqichlarini talabalarga tushuntirish, turkiy tillar tasniflarini o‘rganish, turkiyshunoslikning O‘rta Osiyo va boshqa xorijiy mamlakatlardagi taraqqiyotini tavsiflash, turkiy tillarning turli til sathlaridagi tipologik belgilarni ajratish,hozirgi turkiyshunoslik muammolarini o‘rganish va tahlil etishdan iborat. Shuningdek, fan va ta’lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

«Turkiy filologiya asoslari» tanlov fani tarkibiga quyidagilar kiradi:

1-mavzu. «Turkiy filologiya asoslari» tanlov fanining maqsadi va vazifalari.

«Turkiy filologiya asoslari» fani doirasida o‘rganiladigan masalalar. Turkologiyaning tarkibiy qismlari. Turkiy tillar va xalqlar, ularning soni va yashash hududi. Turkiy tillarni o‘rganish sohasidagi ta’limotlar. «Turkiy filologiya asoslari (tanlov fan)» fanining maqsad va vazifalari.

2-mavzu. Turkiy tillar taraqqiyotini davrlashtirish masalasi

Turkiy tillarning taraqqiyot bosqichlari. Turkiy tillar tasnifi. Mahmud Koshg‘ariy tasnifi va uning ahamiyati. XIX asr oxiri va XX asrda turkologlar tomonidan qilingan tasniflar. Turkiy tillar qarindoshligini belgilovchi asosiy omillar.

3-mavzu. Turkiy tillar tarixini o‘rganish manbalari.

Xitoy manbalaridagi ma’lumotlar. Qadimgi run obidalari. Qadimgi uyg‘ur

obidalari. Qoraxoniylar davri obidalari. Xorazm obidalari. Qipchoq-o'g'uz obidalari. Etrusk, skif, shumer yodgorliklari. Xitoy manbalari orqali yetib kelgan xun tilidagi so'zlar.

4-mavzu.Turkiy xalqlarning yozuv tizimi.

Turkiy xalqlarning yozuv tizimi. Turkiy tillarda XX asr boshlarida til va yozuv siyosati. 1926 yildagi Boku qurultoyida yozuv masalalari muhokamasi. Yozuvning paydo bo'lishi. Piktografik, ideografik, bo'g'inli yozuvlar. Yozuvning jamiyat hayotidagi o'rni. Turkiy xalqlar yozuvi tarixining rivojlanish bosqichlari.

5-mavzu. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari, uning topilishi va o'rganilishi.

Asarning tilshunoslik ilmi uchun ahamiyati. Asarning topilishi, tarjimalari va o'rganilishi. Asarning turkologiyadagi tutgan o'rni.6-mavzu. Ijodiy metodlar, oqimlar va ularga doir ta'limotlar

6-mavzu. XI asrdan keyin yaratilgan filologik asarlar.

Alisher Navoiy va uning filologik asarlari. Mahmud Zamaxshariy va uning filologik asarlari. «Muqaddimat-ul- adab» asari. XIII-XV asrlarda yaratilgan filologik asarlar. Ularning turkologiya tarixidagi o'rni.

Alisher Navoiy va uning filologik asarlari. «Muhokamatul lug'atayn» nomli asari va uning turkiy tillar taraqqiyotidagi o'rni. A.Navoiy asarlari asosida yaratilgan lug'atlar, ularning ahamiyati. Abdurauf Fitrat va uning turkiy filologiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. O'zbekistonda turkiy filologiya masalalarinining o'rganilishi.

7-mavzu. O'zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda turkiy filologiya masalalarinining o'rganilishi.

O'zbekistonda turkiy filologiya masalalarinining o'rganilishi. Turkiy tillarning xorijiy mamlakatlarda o'rganilishi. Hozirgi turkiy tillar tadqiqi. Turkiy tillarning qarluq, qipchoq, o'g'uz guruhlariga kiruvchi tillarning o'rganilishi Avstriya va Amerika Qo'shma Shtatlarida turkiy filologiya masalalarining o'rganilishi. AQSh da o'zbek tili bo'yicha qilingan tadqiqotlar va o'zbek tilining o'qitilishi. Bolgariya va Buyuk Britaniyada turkiy filologiya masalalarining o'rganilishi.

III. Amaliy (yoki <u>seminar yoki laboratoriya</u>) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qadimgi turkiylar va ularning shakllanishi xususidagi munozaralar. "Turk" etnonimi va uning ma'nolari.
2. Turkiy tillarning geneologik tasnifi.
3. O'rxun-Enasoy yozuvi yodgorliklari va ularning turkiy xalqlar madaniy

	hayotidagi tutgan o‘rni. Markaziy Osiyo va Qozog‘istondan topilgan yozma obidalar. 4. M.Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asari va uning turkologiyadagi ahamiyati. 5. XIII-XV asrlarda yaratilgan lug‘atlar 6. Oltoy nazariyasi. 7. Turkiy tillar tarixi o‘rganilishining muammolari. Yevropada va Rossiyada o‘rganilishi. **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar** Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. “Turk” etnonimi va uning ma’nolari. 2. Ko'k turk yozuvi yodgorliklari. 3. O‘zbekistondan topilgan ko‘kturk yozuvi yodgorliklari 4. Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’atit turk” asari. 5. Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat al-adab” asari xususida. 6. Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha yaratilgan lug‘atlar 7. Birinchi turkiyshunoslar qurultoyi va lotin yozuviga o’tish masalalari 8. Rossiyada o’zbek tili masalalarining o‘rganilishi 9. O’zbekistonda mustaqillik yillarida turkiy filologiya masalalarining o’rganilishi. 10.Moskva, Peterburg va Qozon maktablari. 11.Hozirgi turkiy tillarning qarluq, bulg’or, o’g’uz guruhi va ularning o‘rganilishi 12.Hozirgi turkiy tillarning qipchoq, uyg‘ur-o‘g‘uz guruhi va ularning o’rganilishi. 13.Turkiy tillar fonetikasi: Unli va undoshlar Badiiy asarda mazmun va shaklning uzviy birligi.
3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • "Turkiy filologiya asoslari” tanlov fani bo‘yicha bakalavrlar turkiy tillarning umumiy xususiyatlari, turkiy filologiya masalalari, turkiy tillarni o‘rganish sohasidagi ta’limotlar, turkiy tillarning oltoy tillari oilasida tutgan o‘rni, turkiy tillarning taraqqiyot bosqichlari, turkiy tillar taraqqiyotining oltoy davri, turkiy tillar taraqqiyotining xun davri, turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi turk davri, turkiy tillar taraqqiyotining o‘rta turk davri, turkiy tillar taraqqiyotining yangi turkiy til davri haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;*** • Hozirgi turkiy tillar tarqalish hududini ajratish, hozirgi turkiy tillar alifbolarini farqlash, hozirgi turkiyshunoslik muammolarini aniqlash, xorij turkologlari tadqiqotlaridagi fikrlarni, shuningdek, ularning o‘zbek

	filologiyasi haqidagi qarashlarini umumlashtirish, o'zbek turkiyshunoslari fikrlarini o'rganish va tahlil etish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • Turkiy tillarning tasniflarini, turkiy tillar tarixiga doir manbalarni, turkiy filologiya masalalarining xorijiy mamlakatlarda o'rganilish darajasini, turkiy filologiyaning etakchi ilmiy maktablari qarashlarini, turkiy xalqlarning yozuv tizimini bilishi va ulardan foydalana olish bo'yicha ***malaka hosil qilishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • kompyuter; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil. • turli xil nostandart testlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Қўчқортоев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. –Т., 1984. 2. Uluqov N. Turkiy filologiyaga kirish. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: Navro'z, 2016. – B 172. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Т., 1982. 2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. Илмий асарлар. Т., 2000. 3. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. Т., 1967. 4. Гумилев Л.Н. Древные тюрки. - С.Пет. -М., 2002. 5. Mahmudov Q. Qadimgi Turkiston. –T., 2004. 6. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. –Тошкент, 1960. Т.1, 1961. Т.2, 1963. Т.3. 7. Рустамов А. Маҳмуд Замахшарий. Т., 1971. 8. Содиқов Қ. Кўк турк битиклари: матн ва унинг тарихий талқини. –Т. 2004. 9. Туркшунослик изланишлари. Иккинчи тўплам. - Тошкент,2009. -Б

	110. 10.Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. Т., 2008. 11.Шониёзов К. Ўзбек халкининг шаклланиш жараёни. Т., 2001. 12.Xudoyberdiyev J. Mahmud Koshg'ariy hayoti va "Devonu lug'otit turk" bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatkichi. T., 2011. 13.Худойбердиев Ж. Маҳмуд Кошгарий ҳаёти ва «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиши. Т., 2010. **Axborot manbalari (saytlar):** 14.www. ziyonet. uz 15.www.ziyouz.com 16.www.turklib.uz 17.www.turklib.ru. 18.www.turklib.com.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy кengashining 2021-yil _____ ___-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: R.Suvonova – SamDU, O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
9.	**Taqrizchilar:** S. Karimov – SamDU, O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (ichki) M. Abdiyev – Amaliy tilshunoslik, o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (tashqi)